

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.S.Sharipova	
Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati.....	6
Sh.K.Xujamberdiyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'ri.....	11
M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov	
Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi	16
M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova	
Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ...	23
M.M.Yakubbayev	
Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching german language.....	29
J.A.Yuldashev	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning metodik xususiyatlari.....	34
X.T.Nishonova	
Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in elementary grades	38
Sh.M.Robilova	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli.....	43
U.S.Do'sanov	
Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini qo'llash metodikasi.....	47
X.X.Umarov	
Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов	51
Д.К.Каримов	
Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от типов телосложения у юных акробатов	55
З.Г.Гаппаров	
Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании	61
M.N.Nasritdinova	
Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish.....	67
M.G'Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari, Xitoy tajribasi	72
D.K.Baydjanova	
Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni	78
I.A.Raxmonov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik muammosi.....	82

IQTISODIYOT

M.K.Abadov	
Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan	85

FALSAFA

M.A.Mamatov	
So'fiylik – gumanistik ta'limot	90
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'ri	98
D.Y.Qambarova	
O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabat mezonlari.....	102



UO'K: 316.3(575.1)

O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA IJTIMOY MUNOSABAT MEZONLARI**КРИТЕРИИ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА****THE CRITERIA OF SOCIAL RELATIONS AT THE NEW DEVELOPMENT STAGE OF UZBEKISTAN****Qambarova Dilorom Yusupovna** 

Farg'ona davlat universiteti gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasini professori v.b

Annotatsiya

Maqolada jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida oliy maqsadga erishish uchun g'oyaviy birlashish va milliy birdamlikni shakllantirishga oid fikrlar tahlil etilgan.

Аннотация

В статье анализируются идеи формирования идейного единства и национального единства для достижения высшей цели на новом этапе развития общества.

Abstarct

The article analyzes ideas on the formation of ideological unity and national unity to achieve the highest goal at the new stage of development of society.

Kalit so'zlar: ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hamkorlik, demokratik davlat, qadriyatlar, g'oyaviy birlashuv, axloqiy norma

Ключевые слова: общественные отношения, социальное сотрудничество, демократическое государство, ценности, идеологическое единство, моральная норма.

Key words: social relations, social cooperation, democratic state, values, ideological unity, moral norm

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabatlar demokratik, huquqiy davlat hamda, umuman, ijtimoiy hayotning yuksak aql mezonlari asosida tashkil etilishini talab etadi. Bularning barchasi yagona ideologiya "milliy tiklanishdan–milliy yuksalish sari" degan g'oya asosida amalga oshirilmoqda. Maqsadga erishishning turli yo'llari, turlicha vositalari mavjud. Maqsad – yo'nalishni belgilaydi, yo'nalish esa oqilona reja tuzishni talab etadi. Maqsadga erishish obyektiv va subyektiv omillarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Aniqlangan yo'nalish muayyan shart-sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin, shuning uchun bu shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shart-sharoitlar – yo'nalishning imkoniyati emas, balki amalga oshirishdir. Jamiyatda maqsadlar mushtarakligi ijtimoiy hamkorlikni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy hamkorlik jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. "Ijtimoiy hamkorlik g'oyasini amalga oshirish yo'lida g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siqlar aqidaparastlik, terrorism, ekstremizm, ayirmachilik, mahalliychilik, tajavuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Mafkuraviy kurashlar kuchayib borayotgan bugungi kunda fuqarolarimiz o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi"[1]. Shu bois, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida insonlarni ijtimoiy hamkorlikka undovchi birlashtiruvchi g'oyaga, hamjihatlikka undovchi ideologik kuchga ehtiyoj ortib bormoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR

O'zbekistonda so'nggi chorak asr davomida milliy g'oya va mafkuraga bag'ishlangan bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, U.Abilov, M.Abduraimova, T.Jo'rayev, Sh.Paxriddinov, J.Baxronov, N.Jo'rayev, N.Komilov, M.Quronov, A.Begmatov, Q.Nazarov, A.Muxtorov, I.Ergashevlarning tadqiqotlarida g'oya va mafkuralarning ijtimoiy ahamiyati va zarurati

FALSAFA

ilmiy asoslangan. Shuningdek, S.Otamuratov, I.Xo'jamurodov, N.Nazarov, V.Qo'chqorov, Sh.Qahharova, U.Saidov tomonidan ham o'rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuv o'ziga xos milliy mafkuradir, u muayyan mulohaza, qoida, fikrlarda ifodalanadi. Unga erishish ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy determinantalar majmui sifatidagi obyektiv shart-sharoitlarga hamda subyektiv omillar, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy tamoyil va huquqiy normalarga bog'liqdir. Maqsadga turli vosita, usullar yordamida erishiladi. Maqsadga erishish vositalari ham moddiy, ham ma'naviy bo'lishi mumkin. Maqsad aloqalari tizimi harakatlar dasturida aks etadi. Maqsad va unga erishish vositasining o'zaro ta'siri ularning umumiy tomonlari mavjudligi bilan bog'liq. O'zaro ta'sir umumiy tomonlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida o'zaro ta'sir etuvchi tizimlar o'zgaradi.

Shuningdek, demokratik davlat qurish jarayoni insonlar faoliyatining serqirraligini, turli-tumanligini taqozo etadi. Ushbu jarayonda faoliyat va fikr, manfaatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarini tanlash plyuralizmi, ya'ni ko'pligi bilan belgilanadi. Ular ba'zida bir-birlariga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar, faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Lekin bular ijtimoiy tangliksiz, tinch, osoyishta yo'l bilan hal qilinmog'i lozim. Buning uchun jamiyatda barqarorlik mavjud bo'lishi kerak. Ijtimoiy barqarorlik va mamlakatning olg'a qarab rivojlanishi jamiyatni har tomonlama isloh qilish jarayonining fundamental tayanchidir. Demak, barqarorlik turli xil qarashlar birligining sharti va ichki hamda tashqi muvozanatni saqlash vositasi hamdir.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, barcha sog'lom fikrlovchi fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning ijtimoiy g'oyaviy mushtarakligiga asoslanadi. Bu borada O'zbekistonning eng asosiy yutig'i "ko'p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir"[2]. Demak, ijtimoiy mushtaraklik jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va ayrim jamiyat a'zolari uchun ma'qul bo'lib, o'z maqsadlarini, orzu-niyatlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlar va sharoitlarga ega bo'lishlarining majmuasidir. Ijtimoiy mushtaraklik, murosas ma'lum bir qadriyatlar tizimiga asoslangan bo'ladiki, bu qadriyatlar jamiyatning aksariyat qismi uchun maqbul bo'ladi. Tinchlik, totuvlik, xavfsizlik, barqarorlik, ijtimoiy adolat kabi qadriyatlar shular jumlasidandir. Tinch, farovon yashab, ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun fuqaroviy, millatlararo totuvlik, barqarorlik bilan birga ijtimoiy adolat, tolerantlik hamda g'oyaviy birdamlik munosabatlari mavjud bo'lishi kerak. Plyuralizmga ustunlik qilgan demokratik davlat, fuqaroviy jamiyatda ijtimoiy mushtaraklikni, fuqarolarni o'z maqsadlariga erishishda imkoniyat va shartlar tengligi haqidagi ijtimoiy kelishuv deb ham atash mumkin. Bunga misol qilib bir qator tamoyillarni keltirish mumkin, ularni amalga oshirish esa ijtimoiy mushtaraklikning asosi deb qaraladi. Bular barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, erkin tanlash huquqi, o'z irodasini erkin ifodalash huquqi insonlarning o'z manfaatlarini himoya qilishi va amalga oshirishi hamda boshqa shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, mulkdorlar sinfi huquq va mavqeini himoya qiluvchi ijtimoiy adolatni ta'minlovchi tamoyillardir. Ushbu tamoyillarga rioya qilish esa jamiyatda qabul qilingan Konstitutsiya normalari va qonunlarga mos keladigan ijtimoiy mushtaraklik, barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyot kafolatlari deb qarashga imkon beradi. Zero, "bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tinch-totuv hayot kechirayotgani... Millatlararo totuvlikni ta'minlashda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy madaniy markazning o'rni behiyos. Aynan shu nuqtai nazardan kelgusida ham millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib holadi"[3]. Demak, ko'pmillatli jamiyatning hamjihatligi ularni umumiy madqad ostida birlashtirish, yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi, investitsiyalarning ko'payishi, madaniy-ma'rifiy aloqalarning rivojlanishi va boshqa bir qator sohalaridagi yutuqlar jamiyatdagi barqarorlikka, g'oyaviy birlashuvga bevosita bog'liqdir.

Hozirgi sharoitda g'oyaviy birlashuv O'zbekiston barqarorligi va olg'a qarab rivojlanishining asosi sifatida jamiyat faoliyatining barcha sohalarida amalga oshmoqda. Bugungi uknda jag'onda ham jamiyatlarining g'oyaviy birlashuvi usutvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki "insonlararo munosabatlarda o'zaro hurmat, yordam, hamkorlik, mehr, muhabbat, hamdardlik kabi ulug' qadriyatlar darz ketgan. Bugun "o'zing uchun o'l yetim", me'yordan ortiqcha "men"likka ruju qo'yish

kabi salbiy holatlar kuchayib bormoqda. Ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'chilik kabi azaliy qadriyatlarga allaqachonputur yetgan, bugun bu jarayon yana-da oshib bormoqda. Ularning oqibatida insonning o'zligidan begonalashuvi kuchaymoqda. O'zining inson sifatidagi qadriyatini e'zozlash tuyg'ularidan mahrumlashib bormoqda"[4]. Shunday ekan, jamiyatda begonalashuv fenomenini kuchayib ketmasligi va insonlardagi ijtimoiy mas'uliyatni yo'qolib ketmasligi uchun ham jamiyatda g'oyaviy birlashuvga ehtiyoj saqlanib qolaveradi.

Tadqiqot doirasida g'oyaviy birlashuvning mazmun-mohiyatini anglash uchun falsafiy fikr taraqqiyotida mutafakkirlarning birlik, ijtimoiy hamkorlik va birdamlikka doir, ma'lum g'oya atrofiga birlashishga qaratilgan fikrlarni ko'rib chiqish ham maqsadga muvofiq bo'lardi

Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassasamlashtirgan milliy birlashuv g'oyasini yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmog'i lozim. Zero, "jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yana-da rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi"[5]. Jamiyat oldida turgan ezgu maqsadlarga erishish, milliy o'zlikni qayta anglash, unga rahna soluvchi turli "madaniyat"lar xurujidan himoyalani, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan avlodni voyaga yetkazish zarurati zamon talablariga mos yangi milliy g'oyani shakllantirishni taqozo etmoqda. Jamiyatning tarixiy ma'naviy ildizlari, urf-odat, an'analariga asoslangan ma'naviy hayotning asosiy tamoyillarini tiklamay turib, kelajak hayotni qurib bo'lmasligi anglab yetildi. Xalqning milliy mintaliteti, milliy fazilatlarini, o'zligidan chekinmagan holda umuminsoniy qadriyatlar, dunyo taraqqiyoti tendensiyalari bilan uyg'unlashgan holda o'z manfaatlarini, ehtiyojlari, maqsad va intilishlarini ta'minlashga xizmat qiladigan ilg'or, pragmatik milliy g'oyani tanlash, uni shakllantirish va rivojlantirish naqadar muhimligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ajdodlar qoldirgan boy milliy merosni o'rganmasdan turib, insonlar tafakkurini yangilash, mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'naviy shakllanish, takomil topish, yuksalish formulasini yaratish mumkin emas. Sharq faylasuflari ta'limotida Vatanni sevish, insonni asrab-avaylash, tabiatga munosabat, bilim olish, axloqiy fazilatlariga ega bo'lishga undovchi fikrlar juda ko'p. Ularda inson uchun munosib bo'lgan hayot sharoitlarini yaratish, baxt-saodat, komillikka yetaklovchi yo'llarni izlash va tafakkurni o'stirish, aql-zakovatini takomillashtirib borishga qaratilgan bebaho g'oyalar ifodalangan. Bu borada qadimgi davr Xitoy falsafasi va uning nomdor vakili Konfutsiy qarashlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xitoydagi tartibsizlik, siyosiy beqarorlik va boshboshdoqlikni tugatish uchun Konfutsiy o'ziga xos chora-tadbirlarni taklif qildi. Konfutsiyning fikricha, buning uchun insonlarni tarbiyalab, ularni axloqiy normalarga rioya qilishga chaqirish kerak, shundan so'ng davlatning o'zi muvozanatga keladi, jamiyatda birdamlik hosil bo'ladi. Muammolarni hal qilishda faqat siyosat va iqtisodiyotga emas, balki insonning ruhiy-ma'naviy holatiga tayanib ish ko'rish kerak. Shu tahlitda, Konfutsiy davlat ahamiyatiga molik muammolarni inson omili kesimida hal etishga da'vat qiladi.

Konfutsiy qarashlari asosida jamiyatni birlashtirish, g'oyaviy birlashuv asosi "Butun dunyo – yagona davlat" g'oyasini asosida amalga oshiriladi. Bu yerda "Butun dunyo" sifatida Xitoy nazarda tutilmoqda. Mamlakatdagi g'oyaviy birlashuv kafolati har bir insonning jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligi bilan belgilandi. Konfutsiy bu holatni, ya'ni insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosi sifatida insonparvarlik ilgari suradi. Shuningdek, jamiyatdagi g'oyaviy birlashuv ijtimoiy burchga sodiqlik va xolislik bilan ham belgilanadi.

O'rta asrlar arab-musulmon falsafasida ham jamiyat jamiyatda g'oyaviy birlik va ijtimoiy birdamlikni shakllantirish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligiga oid qarashlar ko'plab faylasuflar tomonidan ilgari suriladi. Xususan, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy inson va jamiyat hayotida mafkura hamda g'oyaning naqadar muhim o'rin tutganligi haqida shunday deb yozgan edi: "Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oyani o'z xohishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da, zavq va shavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, qilmishlari yomon va noo'rindir"[6].

Yangilagnayotgan O'zbekistonda yangi g'oyaviy konsepsiya zarurligini va bu asosda jamiyatda g'oyaviy birlashuvni shakllantirish, milliy birdamlik, hamjihatlikni oshirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

FALSAFA

- milliy o'zlikni, an'analarni, xalqning orzu-umidlarini, jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarini qamrab olishi;
- jamiyatning barcha a'zolarini yagona milliy bayroq atrofida birlashtirib, ularni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g'oyani yaratishni;
- millatchilik, boshqa xalqlarni mensimaslik kayfiyatidan xoli bo'lib, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rin, hurmat va izzat qozonishida poydevor bo'lishini;
- jamiyat a'zolarini, avvalo, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga madadkor bo'lishini;
- vatanning o'tmishi, bugungi kun va kelajagini bog'laydigan, jahon hamjamiyatiga, umumbashariy yutuqlarga yetaklab boradigan g'oyani bayroq qilib ko'tarishi kerak.

XULOSA

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim omili g'oyaviy birlashuv va bu orqali ma'naviy tiklanish sifatida ko'rilmoqda. Mamlakatda milliy g'urur, inson qadr-qimmatini baland ko'tarish, milliy qadriyatlar, fazilatlar va milliy fe'l-atvor, milliy axloq, hayot tarzi, kindik qoni to'kilgan tuproqni sevish va e'zozlash, ulug'larga, ota-bobolar ruhiga hurmat, kichikka izzat, nogironlarga xayr-saxovat tuyg'ularini tiklash, mehr-oqibat, bir-biriga muhabbat tuyg'ularini e'zozlash singari azaliy ma'naviy sifatlar ilgari surilmoqda. Har qanday milliy g'oya, milliy mafkura davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, uning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatining tarkibiy qismiga aylanmasa, u rivojlanmaydi, xalqni birlashtira olmaydi. Siyosat va mafkura go'yoki egizaklar kabi bir-birini taqozo etadi. Mafkuralarning barchasi hokimiyat nufuzi va hokimlik munosabatlari muammosi bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi. Chunki har qanday hokimiyat yoki siyosiy partiya o'z maqsad muddaolariga keng xalq ommasini ishontirish uchun kuchli, ta'sirchan mafkuraga muhtoj bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov M. Bizni birlashtirgan g'oya. –Toshkent.: G'ofur G'ulom NMIU. 2016. –B. 21.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lijizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent.: O'zbekiston, 2017,1-jild. –B.46.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lijizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent.: O'zbekiston, 2017,1-jild. –B.47.
4. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. –Toshkent.: O'zbekiston. 2018. –B. 100.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'lijizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent.: O'zbekiston, 2017,1-jild. –B.138.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B 188.